

TURDI FAROG'İY LIRIK MEROSI: G'AZAL VA MUXAMMAS JANRLARINING BADIY XUSUSIYATLARI TAHLILI.

Homidova Nozima

Farg'ona davlat universiteti

filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada XVII asr o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri — Turdi Farog'iy ijodida g'azal va muxammas janrlarining shakliy va mazmuniy xususiyatlari tahlil qilingan. Shoir lirik merosining yetakchi yo'nalishlari, badiiy obrazlar tizimi, xalqona ruh va ijtimoiy-ma'rifiy g'oyalar bilan sug'orilgan poetik tamoyillari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot jarayonida o'zbek mumtoz adabiyoti tarixiga oid nufuzli manbalar, qo'lyozmalar kataloglari hamda akademik nashrlar tahlil qilindi. Maqolada Turdi Farog'iy g'azal va muxammaslarining mavzu doirasi, badiiy tasvir vositalari, vazn-uslub xususiyatlari hamda shoirning poetik individualligini belgilovchi omillar haqida izchil ilmiy xulosalar berilgan.

Аннотация. В статье анализируются формальные и содержательные особенности жанров газели и мухаммаса в творчестве Турди Фароги, одного из крупнейших представителей узбекской литературы XVII века. Научно освещаются ведущие направления лирического наследия поэта, система художественных образов, его поэтические принципы, проникнутые народным духом и социально-просветительскими идеями. В ходе исследования анализировались авторитетные источники по истории узбекской классической литературы, каталоги рукописей, научные издания. В статье даются последовательные научные выводы о тематике газелей и мухаммасов Турди Фароги, средствах художественного изображения, особенностях метрического стиля, факторах, определяющих поэтическую индивидуальность поэта..

Abstract. The article analyzes the formal and substantive features of the ghazal and muhammas genres in the work of Turdi Farogi, one of the great representatives of Uzbek literature of the 17th century. The leading directions of the poet's lyrical heritage, the system of artistic images, his poetic principles imbued with the folk spirit and socio-enlightenment ideas are scientifically highlighted. In the course of the research, authoritative sources on the history of Uzbek classical literature, manuscript catalogs, and academic publications were analyzed. The article provides consistent scientific conclusions about the subject matter of Turdi Farogi's ghazals and muhammas, means of artistic depiction, meter-style features, and factors determining the poet's poetic individuality.

Kalit soʻzlar: Turdi Farogʻiy, lirik meros, gʻazal, muxammas, mumtoz adabiyot, poetika, badiiy obraz, aruz, xalqona ruh.

Ключевые слова: Турди Фароги, лирическое наследие, газель, мухаммед, классическая литература, поэтика, художественные образы, сон, народный дух.

Keywords: Turdi Faroghi, lyrical heritage, ghazal, muhammas, classical literature, poetics, artistic imagery, dream, folk spirit.

Kirish

Oʻzbek mumtoz adabiyotining taraqqiyot bosqichlarida XVII asr adabiy jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda ijod qilgan adiblar orasida Turdi Farogʻiy oʻzining xalqona ruhdagi lirikalari, ijtimoiy-siyosiy fikr yuritishga moyilligi hamda badiiy mahorati bilan ajralib turadi. Shoirning bizgacha yetib kelgan merosi koʻp boʻlmasa-da, uning mavjud gʻazal va muxammaslari oʻzbek sheʼriyati anʼanasida muayyan oʻringa ega. Turdi Farogʻiy ijodi haqida birinchi maʼlumotlar “Majmua ush-shuaro”, “Tazkirai Muqimxoniy” kabi tazkiralarda uchraydi. XX asrda esa shoir asarlari akademik nashrlar koʻrinishida chop etilib, tizimli ilmiy tadqiqot obʼektiga aylandi. Uning lirikasining asosini gʻazal va muxammas janrlari tashkil etadi. Ushbu maqolada mazkur janrlarning poetik jihatlari tahlil qilinadi.

Turdi Farogʻiy lirik merosining umumiy xususiyatlari:

Turdi Farog‘iy she‘riyati bir tomondan mumtoz adabiyot estetikasiga tayansa, ikkinchi tomondan xalq og‘zaki ijodiga xos sodda, ravon, jonli ifoda vositalarining faol qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Shoir lirikasida ishqiy mavzular bilan bir qatorda ijtimoiy ruh kuchli tasvirlanadi. Shoirning ayrim she‘rlarida hajviy ohang, zamondosh amaldorlarga tanqidiy munosabat, jamiyatdagi tengsizlikka qarshi fikrlar ham uchraydi. Turdi Farog‘iy g‘azallari an‘naviy ravishda ishqiy mavzuga yo‘g‘rilgan bo‘lsa-da, ular orasida tasavvufiy tarzda ma‘rifiy qarashlar, insoniy poklik, shukr va qanoat, vafo, sadoqat, shaxsiy hayotiy kuzatishlarni aks ettiruvchi lirika ham muhim o‘rin tutadi.

G‘azal — mumtoz Sharq she‘riyati, jumladan, o‘zbek adabiyotining eng keng tarqalgan lirik janridir. Uning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

1. Hajm va tuzilishi: odatda 5–12 baytdan iborat bo‘ladi. Birinchi bayt — matla‘, unda har ikki misra qofiyalashadi. So‘nggi bayt — maqta‘, unda shoir taxallusini tilga oladi. Qofiyalanish tartibi: aa, ba, va, ga, da...

2. Mavzu doirasi: g‘azalning asosiy mavzusi — ishq, muhabbat, yor vasfi, hijron, sadoqat, ruxiy holatlar. Biroq ko‘p shoirlar, jumladan, Turdi Farog‘iy g‘azalni ijtimoiy fikr, ma‘naviy-nasihat, tasavvufiy mazmun berishda ham qo‘llagan. Shoir g‘azallarida mumtoz badiiy vositalar keng qo‘llanadi:

tashbeh — yor qiyofasini tabiat manzaralari, gul, oy, quyoshga qiyoslash;

isti‘ora — ruhiy holatlarni ramziy obrazlar orqali berish;

tazod — yor vasli va hijroni, shodlik va g‘am o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar;

kinoya — ijtimoiy mazmundagi terma ma‘nolar.

Dema, Farog‘iyo, kim ko‘rmadi jabr dahridin,

Ki, yo‘q zamonda senga o‘xshash ovora kishi.

Bu baytda shoir o‘zining zamoni zulmidan shikoyat qiladi. “Jabr dahridin” — hayotning, davrning adolatsizligi majoziy ifoda bilan berilgan. “Sen kabi ovora kishi yo‘q” degan mazmun o‘zini tanholikda, beqadr holatda sezgan lirik qahramon obrazini yaratadi.

Baytda kuchli ijtimoiy ruh va shaxsiy iztirob mujassam. Farogʻiy gʻazaliyoti aynan shu hayotiylik, xalqona ohang bilan ajralib turadi. Turdi Farogʻiy gʻazal tilini sodda xalqona unsurlar bilan uygʻunlashtirishi bilan ham ajralib turadi. Bu esa shoirning gʻazal janrini ommaviy ruh bilan boyitganini koʻrsatadi. Shoir gʻazallarining asosiy qismi aruzning ramal, hazaj, mutaqorib bahrlarida bitilgan boʻlib, ularning ritmik barqarorligi va ohangdoshlik darajasi yuksak.

Muxammas janrining badiiy xususiyatlari.

Muxammas — mumtoz sheʼriyatning koʻp tarqalgan murakkab lirik janri boʻlib, har bir bandi 5 misradan iborat boʻlishi bilan gʻazal, murabbaʼ, musaddas kabi janrlardan farqlanadi. Muxammasning tuzilishi:

- asar bandlar (boblar)dan tashkil topadi;
- har bir band 5 misradan iborat boʻladi;
- qofiyalanishi odatda shunday: aaaaa / bbbba / vvvva / gggga / ...
- soʻnggi misra koʻpincha avvalgi bandlar bilan bogʻlovchi qofiya vazifasini bajaradi.

Muxammas arab va fors sheʼriyatidan mumtoz adabiyotimizga kirib kelgan. Oʻzbek adabiyotida Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi Farogʻiy, Muqimiy, Furqat kabi shoirlar uning goʻzal namunalari yaratuvchilari hisoblanadi. Muxammas Turdi Farogʻiy ijodida alohida oʻrin tutadi. Bu janr shoirga fikrni keng rivojlantirish, mazmuniy qatlamlarni kengaytirish imkonini beradi. Muxammas besh misradan iborat bandlarga qurilgan boʻlib, birinchi band koʻpincha shoirning oʻziga xos kirish bayti vazifasini bajaradi. Farogʻiy muxammaslarida bandlar oʻrtasidagi mazmuniy uygʻunlik puxta, bandlar orasida gʻoya bosqichma-bosqich rivojlanadi, soʻz oʻyini, maʼno koʻpqatlamligi kuchli. Turdi Farogʻiy muxammaslarining eng muhim jihatlaridan biri — ularda ijtimoiy norozilik, adolat izlash, yolgʻonchilik va nodonlikni tanqid qilish motivlarining mavjudligidir. Shoir jamiyatdagi ayrim adolatsizliklarni ramziy obrazlar orqali oʻtkir ifodalaydi.

Xulosa.

Turdi Farog'iy o'zbek mumtoz lirikasida g'azal va muxammas janrlarini o'ziga xos xalqona ruh, ravon til va chuqur ijtimoiy mazmun bilan boyitgan ijodkorlardan biridir. Uning g'azallari an'anaviy ishqiy lirikaning eng yaxshi namunalari bo'lish bilan birga, mazmuniy sodda va xalqona tilda yozilganligi bilan ajralib turadi. Muxammaslarida esa ijtimoiy hayotga xos masalalarning yoritilishi, mazmunga kenglik berilishi hamda poetik qatlamlarning ko'pligi kuzatiladi. Turdi Farog'iy poetikasi XVII asr o'zbek adabiyotining taraqqiyotida muhim bosqich bo'lib, uning badiiy merosi hozirgi tadqiqotlarda ham qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. — Toshkent: Fan, 1977–1980.
2. A.G'aniyev. O'zbek mumtoz adabiyoti poetikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1991.
3. M.Zohidov. O'zbek klassik poeziyasi. — Toshkent: Fan, 1972.
4. B.Abdullayeva. Mumtoz she'riyat janrlari. — Toshkent: Universitet, 2005.
5. S.Munirov. O'zbek tazkirachilik tarixi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
6. "Majmua ush-shuaro". — Qo'lyozma materiallari, O'ZFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo'lyozmalar instituti fondi.
7. A.Erkinov. XVII asr Markaziy Osiyo adabiy jarayoni haqida. — Toshkent: Fan, 1999.